



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarbiya fani o'qutuvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 7-sinflar uchun
I yarim yillik

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan tarbiya fanidan I yarim yillik
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Inson - ezgulik ijodkori. (Loyiha ishi baholash mezonini e‘lon qilish)	1		
2.	Oliy maqsadlar bilan yashash	1		
3.	Muvaffaqiyat - qunt va qat‘iyat natijasi	1		
4.	Umr-umid-sinov-imkoniyat	1		
5.	Tabiatni asrash-hayotni asrash	1		
6.	Inson axloqi bilan go‘zal	1		
7.	Inson odobida aks etuvchi fe‘l-atvor.	1		
8.	Nazorat ishi-1	1		
9.	Insonlarni birlashtiruvchi umuminsoniy xislatlar.	1		
10.	Baxtiyor hayotning ustunlari	1		
11.	Baxtiyor hayotning ustunlari	1		
12.	Hammasi o‘z qo‘limizda	1		
13.	Inson umri	1		
14.	Ogohlik	1		
15.	Nazorat ishi-2	1		
16.	Ko‘zga ko‘rinmas xatarlar	1		

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Inson - ezgulik ijodkori. (Loyiha ishi baholash mezonini e'lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga inson ezgulik ijodkori mavzusi haqida tushunchalar berish, tengqurlari bilan chiroyli hulq omillari, do'stlikning qadriga yetish zaruriyati, muvaffaqiyatga erishishda qat'iyat va matonatning lozimligi, tabiatni asrash shartlari va boshqa umuminsoniy fazilatlar majmuasi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: odob-ahloq me'yorlarini o'zlashtirish natijasida hulq-atvorini ma'naviy barkamollik va go'zal odob durdonalari bilan shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: tarbiyaning boshi – odob, yo'li – insoniylik, bekatlari – to'g'ri so'zlik, mehnatsevarlik, hush-hulqlik, mardlik, mas'ullik, manzili esa baht-saodat vodiysi sanalishi haqida tushuncha berish. Go'zal tarbiya o'zida barcha insoniy fazilatlarni birlashtirib, kishining hayot yo'llarini nurafshon etaishi haqida tushuncha berish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi, mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi, orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Sayohatga chiqish – yaxshi, uyga qaytish – yoqimli! Sayohat oldidan o'zingizni uydan zerikkandek his qilsangiz ham, uyga qaytishning zavqi o'zgacha. Vatanga qaytishning gashti ham xuddi shunday. Sayohat qiling, dunyo ko'ring, o'qib-o'rganing va bir kuni, albatta, Vatanga qayting. Unutmang – siz uning aziz bir bo'lagisiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasini o'qing va quyidagi savollarga javob bering:

1. Ushbu moddada qanday majburiyatlar bayon qilingan?

2. Nima deb o'ylaysiz, nega fuqarolar tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni avaylab-asrashi shart?

3. Men ... majburiyatlarni bajaraman. Mening bu ... juda muhimdir.

VATANDIN YAXSHI YOR BO'LMAS...

Bir yumush bilan Nyu-Jersi shahriga yo'lim tushdi. Yonimdagi o'rindiqla o'tirgan o'rta yoshli bir kishining men tomonga qarab turganini sezib, beixtiyor o'girildim. Nigohimiz to'qnashdi.

– O'zbekistondanmisiz? – menga yuzlandi mayin tabassum bilan.

– O'zbekistondanman, – deya o'rnimdan turib, u kishining oldiga bordim. Salomlashdik. So'rashdik.

Suhbatdoshim ismi Bahodir, ota-bobosi asli an dijonlik ekanligini aytdi. U Amerikada tug'ilib, o'sib, ota-buvalaridan me ros kasb qandolatchilik bilan shu g'ullanar ekan. – Otam Andijonning odamlari, bog'-rog'lari va Bog'isha mol haqida ko'p gapirganlar. Har safar eslaganlarida O'zbekistonga, albatta, bir kun borishlariga ishonar edilar. O'z bekiston musta qillikka erishgach, yo'llar ochildi. Vatandagi yaqinlarimiz bilan topishdik, diydor ko'rishdik. Oxirgi yillarda ular besh marta Andijonga bordilar. Har safar: «Vatanimda ko'z yumush nasib etsin», deb duoga qo'l ochar edilar. Otamning duolari ijobat bo'lib, Vatanda vafot etdilar. – Otangizning joylari jannatda bo'lsin, – dedim ko'zlarim yoshlanib.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Vatan sog'inchini qanday tasavvur qilasiz? Nega bu sog'inch muso'urni qiynaydi?

2. «Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l» – deganda nima nazarda tutilgan?

3. Siz uyingizdan uzoqda bo'lsangiz nimalarni sog'inasiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Oliy maqsadlar bilan yashash

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga ezgu maqsadlar bilan yashash mavzusi haqida tushunchalar berish, tengqurlari bilan chiroyli hulq omillari, do'stlikning qadriga yetish zaruriyati, muvaffaqiyatga erishishda qat'iyat va matonatning lozimligi, tabiatni asrash shartlari va boshqa umuminsoniy fazilatlar majmuasi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: odob-ahloq me'yorlarini o'zlashtirish natijasida hulq-atvorini ma'naviy barkamollik va go'zal odob durdonalari bilan shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: tarbiyaning boshi – odob, yo'li – insoniylik, bekatlari – to'g'ri so'zlik, mehnatsevarlik, hush-hulqlik, mardlik, mas'ullik, manzili esa baht-saodat vodiysi sanalishi haqida tushuncha berish. Go'zal tarbiya o'zida barcha insoniy fazilatlarni birlashtirib, kishining hayot yo'llarini nurafshon etishi haqida tushuncha berish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi,

mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi, orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Aql-zakovatda tengsiz ustoz Zohid kamonbozlikda ham beqiyos edi. Bir kuni tongda u mahoratiga bepisandlik bilan qaraydigan shogirdi hamrohligida uyi atrofini o'rab olgan quyuk o'rmonzorda kamondan o'q uzish mashqlarini bajarar edi. Bunday mashg'ulotlarga bir necha marotaba guvoh bo'lgan izdoshi esa o'zini mashqlarga befarq dek tutardi.

Ustoz eman daraxti ostida o'sgan yovvoyi atirgul g'unchasini uzib, daraxtning baland shoxiga ildi-da, undan yuz qadam uzoqlashdi. Uning harakatlaridan taajjubga tushgan shogird jarayonni diqqat bilan kuzata boshladi. Ustoz sadog'idan o'q olib, noyob

yogʻochdan tayyorlangan yoyiga ildi. Shogirdiga roʻmolcha uzatib, «koʻzimni bogʻla» dedi, keyin: – Mardlik timsoli boʻlgan kamonbozlik bilan shu gʻullanga nimni koʻp koʻrgansan, toʻgʻrimi? – dedi.– Har kuni va yana atirgul gʻunchasini 300 qadam uzoqlikdan turib urishingizni ham, – dedi shogird.

Ustoz qaddini rostladi, oyoqlarini qulay joylashtirib, oʻng yelkasi bilan orqaroq tisarildi, kamonni tarang tortib, oʻqni nishonga toʻgʻriladi. Vaziyatdan karaxt boʻlgan shogird vizillab uchgan oʻqning ovozi bilan sergak tortdi. Oʻq gul tugul daraxtga ham tegmaganini koʻrgach, miyigʻida kuldi.

– Xoʻsh, oʻqni tekkiza oldimmi? – soʻradi ustoz bogʻlangan koʻzlaridan roʻmolchani yechar ekan.

– Yoʻq! Taassufki, oʻq tamomila boshqa yoqqa qarab uchdi. Men inson idrokining qudrati bilan bogʻliq moʻjizaviy hodisaga guvoh boʻlamanni, deb oʻylab turgan edim. Afsus!.. – dedi shogird.

– Hozirgina senga inson idrokiga daxldor muhim saboqni berdim, – deya xotirjamlik bilan javob berdi ustoz. – Koʻzim ochiqligida gʻunchani 300 qadamdan ura olaman. Garchi, bugun unga 2 barobar yaqin tursam-da, nishonga ololmadim.

Unutma, maqsadingga koʻzing yetsagina erishasan. Aks holda, unga qanchalar yaqinliging ahamiyatsiz. Bu dunyoda oʻzi koʻra olmagan nishonga oʻqni urish hech kimga nasib qilmagan.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Ezgulik nima? «Ezgu maqsad, ezgu tilak, ezgu niyat» tushun chalari qayerda va qachon ishlatiladi?
2. Tugʻilgan kuningizda barcha sizga yaxshi niyatlar bildirdi. Siz ulardan mamnun boʻlib, «Ezgu tilaklaringiz uchun rahmat», deb javob berdingiz. Ezgu tilak nima?
3. Ezgu tilak va ezgu maqsad oʻrtasida qanday bogʻliqlik bor?

V. Darsni yakunlash: oʻquvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʻlon qilish: yangi mavzuni toʻliq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

OʻIBDOʻ: _____

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

**36 listdan iborat tarbiya fanidan
7-sinf I yarim yillik konspektni to‘loq holda olish
uchun telegramdan yozing.**



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**